



KORXONALARDA KADRLAR MENEJMENTINING ZAMONAVIY USULLARINI QO‘LLASH

Rasulov Sherzod Sharof o‘g‘li

JizPI, Iqtisodiyot va menejment kafedrası o‘qituvchisi

Maxkamova Sabina Zoirjon qizi

Jizzax politexnika instituti talabasi

Annotatsiya:

Boshqaruv menejmenti bugungi kunda har bir tashkilotda jamoa tashkil qilish va ish yuritishning asosiy tamoyillaridan biriga aylanib ulgurdi. Ushbu maqolada boshqaruv menejmentining zamonaviy tamoyillari va usullari haqida batafsil bayon qilinadi.

Kalit so‘zlar: Boshqaruv menejmenti, zamonaviy turlari, tamoyillar, nazorat qilish, samarali boshqaruv, intizom va h.k.

APPLICATION OF MODERN METHODS OF PERSONNEL MANAGEMENT IN ENTERPRISES

Abstract:

Leadership management has become one of the main principles of team building and operation in every organization today. This article will describe in detail the modern principles and methods of leadership management.

Keywords: Management, modern types, principles, control, effective management, discipline, etc.

Mustaqilligimizning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekiston iqtisodiyotida institutsional va tarkibiy jixatdan qayta ko‘rib chiqish masalalari davlatimiz siyosati hamda iqtisodiy islohatlarining tub o‘zgaras masalalaridan biri bo‘lib qolmoqda.



International Conference on Economics, Finance, Banking and Management

Hosted online from Paris, France

Website: econfseries.com

24th July, 2025

Albatta yuqorida belgilab olingan masalalarning tub mohiyatini ochib beruvchi richaglardan biri bu boshqaruvning asl holatini qay darajada yo‘lga qo‘yilganligida. Shuning uchun bo‘lsa kerak bozor islohotlarini yanada chuqurlashish, korxonalarda kadrlar siyosati va personalni boshqarish uchun bozor tamoyillaridan foydalanishni taqozo etadi. Ushbu nuqtai nazardan ta’kidlash mumkinki, kadrlar korxonalar darajasida nafaqat zamonaviy bozor munosabatlarini shakllantirish omili va resursigina emas, balki o‘zgarishlar ro‘y berishi lozim bo‘lgan sub’ektdir.

O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiyalash ham mamlakatdagi sanoat korxonalarini texnologik yangilash bilan bir qatorda, respublika korxonalarida mavjud personalni boshqarish tizimi va kadrlar menejmentini takomillashtirishni davom ettirish zaruriyatini tug‘diradi.

Bu borada Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib - intizom hamda shaxsiy javobgarlik har bir rahbar kundalik hayotining asosiy bosh shioriga aylanishi” kerak ekanligi to‘g‘risida alohida to‘xtalib o‘tib. Har bir rahbar kadrlarning bundan buyog‘iga faqat bitta maqsad bilan harakat qilishligi. 2017-2021-yillarda O‘zbekistonni yanada rivojlantirish Harakatlar strategiyasi doirasida mamlakatimizda favqulotda holat deb e’lon qilinib har bir rahbar qolaversa har bir ishchi xodim o‘z ishini yurakdan - sitqi dildan amalga oshirish uchun o‘zlari uchun strategik reja ishlab chiqishi darkorligi xususida juda ko‘p bora ta’kidlamoqda.

Korxonalar darajasidagi modernizatsiyalash jarayonlarini insonlarni boshqarish usullarini takomillashtirishsiz, mavjud personalni boshqarish tizimini izchil yangilanishsiz tasavvur etish qiyin. Kadrlarni boshqarishning barcha darajalarining tarkibi va mohiyatini tubdan takomillashtirish iqtisodiy tizimni isloh qilishning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanmoqda. Butun dunyoda bo‘lgani kabi respublikamizda ham personal korxonaning asosiy resursi, butun tashkilotning muvaffaqiyatini belgilovchi birinchi omil sifatida ko‘rilishi kerak. Ushbu muammoni dolzarbligining muhim jihatlaridan yana biri korxonalarda personalni boshqarish, kadrlar bilan ishlashning barcha jihatlarini doimiy takomillashtirib borish, iqtisodiy islohotlarning hal qiluvchi omillaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda kadrlarni boshqarishda jahon andozalariga mos keladigan xodimlarni aniqlash ularning ushbu sohaga doir qiziqishlarini o‘rganish nazariy jihatdan psixografik omillarini aniqlash imkonini beradi.



Amaliy jihatdan esa kadrlarning yuqori salohiyatidan foydalangan xolda ilmiy-texnik taraqqiyot natijalari orqali iqtisodiyotini yanada barqaror rivojlantirishga asosi yaratiladi. Mazkur jarayonni boshqarishda esa ijtimoiy - iqtisodiy usullardan foydalanish samaradorligini oshirish zarur bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Gaybullayevna, R. S. ., & Musurmangulov. (2024). THE IMPORTANCE OF TIME MANAGEMENT IN ENSURING EFFICIENCY IN CONSTRUCTION. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 3(1), 28–31.
2. Gaybullayevna, R. S. (2023). THE STATE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY: PROBLEMS AND SOLUTIONS. JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE, 2(12), 38-42.
3. Uglu, Rasulov Shavkat Sharof. "Analysis of economic reforms increasing labour resources in the republic of uzbekistan." ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11.11 (2021): 390-396.
4. Sharof, R. S. "Analysis of The State Employment Policy Aimed at The Employment of Labor Resources in The Republic of Uzbekistan." International Journal of Human Capital and Innovative Management 1.1 (2023): 54-61.
5. Расулов, Шавкат. "Ўзбекистон Республикасида меҳнат ресурсларининг иш билан бандлигининг жорий ҳолати таҳлили." Iqtisodiyot va ta'lim 23.2 (2022): 227-232.